



**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINI CHIROYLI  
YOZUVGA O'RGATISH**

*Abdusattarova Sarvinoz Norqo'zi qizi*

*Oriental universiteti*

*„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi“ kafedrasi o'qituvchisi.*

[sarvinozabdusattarova@gmail.com](mailto:sarvinozabdusattarova@gmail.com)+998931309660

*Tog'ayeva Amira*

*Oriental universiteti*

*„Uzluksiz ta'lim pedagogikasi“ kafedrasi Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-  
bosqich 402-guruh talabasi.*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida bolaning intellektual rivojlanishi va mayda motrikasi bilan bog'liqligi bayom etilgan. Yozuv jarayonida yo'l qo'yilgan tipik xatolar va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar keltirilgan.*

**Kalit so'zlar;** *Husnixat metodika, estetik tarbiya, chiroyli yozuv, bosqichlar, pedagogik usullar, qo'l motorikasi, to'g'ri o'tirish qoidalari.*

**Аннотация:** *В данной статье описывается взаимосвязь между интеллектуальным развитием ребенка и мелкой моторикой у учащихся начальных классов. Рассматриваются типичные ошибки, допускаемые в процессе письма, и приводятся практические рекомендации по их устранению.*

**Ключевые слова:** *Методика чистописания, эстетическое воспитание, каллиграфия, этапы, педагогические методы, моторика рук, правила правильной посадки.*

**Abstract:** *This article describes the connection between a child's intellectual development and fine motor skills in elementary school students. It examines typical errors made during the writing process and provides practical recommendations for their correction.*



**Keywords:** *Calligraphy methodology, aesthetic education, beautiful handwriting, stages, pedagogical methods, hand motor skills, rules of correct posture.*

Insonning yozuvi uning ichki dunyosi, tartibliligi va diqqat-e'tibori ko'zglasidir. Ayniqsa, boshlang'ich sinf davrida shakllangan yozuv ko'nikmasi bolaning butun umri davomida saqlanib qoladi. Bugungi raqamli texnologiyalar asrida ham qo'lda chiroyli va tushunarli yozish nafaqat estetik ehtiyoj, balki bolaning intellektual rivojlanishi bolada diqqat oshishi, tartib intizom, estetik didni shakllantirish uchun muhim omil hisoblanadi.

"Chiroyli yozuv – bu bilim va odobning bir qismi bo'lib, Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun yozuvni chiroyli qilish, ularni kelajakda o'qish va yozish ishlarida muvaffaqiyatga tayyorlaydi."

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning chiroyli yozuvi (husnixat) ularning savodxonligi, fikrlash qobiliyati va umumiy madaniyatining muhim ko'rsatkichlaridan biridir. Chiroyli yozuv nafaqat estetik ahamiyatga ega, balki o'quvchining diqqatini jamlash, sabr-toqatini oshirish va tartib-intizomga o'rgatishda ham katta rol o'ynaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga o'rgatishda eng muhim omillardan biri — bu to'g'ri o'tirish va yozuv qurollarini to'g'ri tutishdir. Chunki noto'g'ri holatda yozish nafaqat yozuv sifatiga, balki o'quvchining sog'lig'iga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

**To'g'ri o'tirish qoidalari:** O'quvchi partada tik va erkin o'tirishi kerak, orqasi suyanchiqqa yengil tegib turadi. Bosh juda egilib ketmasligi lozim, ko'z bilan daftar orasidagi masofa taxminan 30–35 sm bo'lishi kerak. Ikkala oyoq yerga tekis qo'yiladi, oyoqlar osilib qolmasligi zarur.

Yelka va qo'llar bo'sh holatda bo'lishi kerak, ortiqcha taranglik yozuvni buzadi.

**Daftarning joylashuvi:** Daftar biroz qiya (o'ng qo'l bilan yozuvchilar uchun chap tomonga, chap qo'l bilan yozuvchilar uchun o'ng tomonga) qo'yiladi. Bu holat harflarni to'g'ri va chiroyli yozishga yordam beradi. Ruchkani to'g'ri tutish: Ruchka



uch barmoq (bosh, ko'rsatkich va o'rta barmoq) yordamida ushlanadi. Ruchka juda qattiq siqilmasligi kerak, aks holda qo'l tez charchaydi. Ruchkaning uchi barmoqlardan taxminan 1,5–2 sm pastda bo'lishi maqsadga muvofiq. Qo'l harakati erkin bo'lishi kerak, faqat barmoqlar emas, balki bilak ham harakatda ishtirok etadi. To'g'ri o'tirish va ruchkani to'g'ri tutish o'quvchining yozuvini chiroyli, aniq va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Shuningdek, bu ko'rish qobiliyatini saqlash, umurtqa pog'onasining to'g'ri rivojlanishi va qo'l mushaklarining ortiqcha charchamasligiga yordam beradi.

**Harflarni to'g'ri yozishni o'rgatish:** Boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga o'rgatishda harflarni to'g'ri yozishni shakllantirish muhim bosqich hisoblanadi. Har bir harfning aniq shakli, o'lchami va qiyaligini to'g'ri o'zlashtirish o'quvchining husnixatini belgilaydi.

O'rgatish jarayoni: Avval harfning yozma shakli o'qituvchi tomonidan doskada yoki namunaviy daftar orqali ko'rsatiladi. Harf elementlarga ajratilib tushuntiriladi (chiziqlar, yoylar, ilgaklar va boshqalar).

**O'rgatishning asosiy bosqichlari.** To'g'ri o'tirish va ruchkani tutish. O'quvchi partada to'g'ri o'tirishi, ruchkani to'g'ri ushlashi kerak. Bu yozuvning chiroyli chiqishiga bevosita ta'sir qiladi. Harflarni to'g'ri yozishni o'rgatish. Har bir harfning yozilish shakli, qiyaligi va o'lchami bosqichma-bosqich o'rgatiladi. Harflarni o'rgangandan so'ng ularni bo'g'in va so'zlarda qo'llash mashq qilinadi. O'quvchilar asta-sekin gap va kichik matnlarni chiroyli yozishga o'rganadilar.

Ko'rsatma va namuna asosida o'rgatish. O'qituvchi doskada yoki daftarida chiroyli yozuv namunalarini ko'rsatadi. Ko'p marotaba mashq qildirish takrorlash orqali yozuv malakasi mustahkamlanadi.

Grafik mashqlar (chiziqlar, shakllar chizish). Bu qo'l mushaklarini rivojlantiradi va yozuvni chiroyli qiladi. Didaktik o'yinlardan foydalanish. Masalan, "Eng chiroyli yozuv", "Kim tez va to'g'ri yozadi?" kabi o'yinlar o'quvchilarda qiziqish uyg'otadi. O'qituvchi har bir o'quvchiga individual yondashishi, ularning xatolarini muloyimlik bilan to'g'rilashi va rag'batlantirishi zarur. Rag'bat (maqto'v, yulduzchalar, kichik sovrinlar) bolalarda yozuvga bo'lgan qiziqishni oshiradi.



Boshlang'ich sinfdagi chiroyli yozuvni shakllantirish uzoq va sabr talab qiladigan jarayondir. To'g'ri tashkil etilgan darslar, samarali metodlar va o'qituvchining e'tibori orqali har bir o'quvchida husnixat ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin.

O'quvchilar avval havoda, so'ng daftarda yozib mashq qiladilar.

E'tibor beriladigan jihatlar: Harflarning bir xil o'lchamda yozilishi. Qatorga to'g'ri joylashtirilishi. Harflar orasidagi masofaning saqlanishi Qiyalikning bir xil bo'lishi.

Mashq qilish usullari: Nuqtalar bilan berilgan harflarni ustidan yozish. Katakli va chizikli daftarlarda yozish, Takroriy yozuv mashqlari. Xatolar ustida ishlash va ularni tuzatish natijasida harflarni to'g'ri yozishni muntazam mashq qilish orqali o'quvchi asta-sekin chiroyli, aniq va tartibli yozishga o'rganadi. Bu esa uning yozma nutqini rivojlantirishga va savodxonligini oshirishga xizmat qiladi.

Yozuv ko'nikmasi birdaniga shakllanmaydi, u bir necha yil davomida bosqichma -bosqich o'rgatish orqali shakllanadi. O'rgatishning asosiy bosqichlari o'quvchi partada to'g'ri o'tirishi, ruchkani to'g'ri ushlab o'rgatish. Bu yozuvning chiroyli chiqishiga bevosita ta'sir qiladi. Harflarni to'g'ri yozishni o'rgatish, har bir harfning yozilishi shakli, qiyaligi va o'lchami o'zining bosqichlari orqali o'rgatiladi. Bo'g'inma bo'g'in yozish harflarini o'rgangandan so'ng ularni bo'g'in va so'zlarda qo'lash mashq qilinadi.

O'quvchini chiroyli yozishga o'rgatishda bo'g'in va so'z yozish bosqichlari eng muhim jarayonlardan biridir. Bu bosqichda o'quvchi harflarni alohida yozishdan ularni bir- biriga to'g'ri ulash, ravon yozish va mazmunli so'zlar hosil qilishga o'tadi. Bo'g'inli yozish bosqichlarida avval o'quvchilar harflarni alohida o'rganadi, keyin esa ularni bo'g'inlarga birlashtiradi. Bunda oddiydan murakkabga qarab avval oson bo'g'inlar o'rgatiladi, bular odatda( ma, mo, mu,la, sa) bir undosh bir unli( ol, at, el) bo'g'inlilar bo'lib, yozilishi oson, talaffuzi aniq va harflarni ulash soda bo'ladi.



Nima uchun avval osson bo'g'inlar ? Chunki o'quvchilar qo'l harakatini asta sekin o'rganadilar va harflarni bog'lashga qiynalmaydi, o'ziga ishonchi ortadi. Oson bo'g'inlar o'zlashtirilgach, asta sekin murakkablashtiriladi. Oddiydan murakkabga o'tish o'quvchilarga yozishni qiyinchiliklarsiz egallashga, harflarni to'g'ri va chiroyli bog'lashga hamda yozuv malakasini bosqichma bosqich shakllantirishga yordam beradi.

Bo'g'in va so'z yozish bosqichi — bu bolani chiroyli yozuvga olib boradigan asosiy ko'prikdir. Aynan shu jarayonda bola harflarni bog'lashni, fikrni yozma ifodalashni va yozuvni estetik jihatdan chiroyli qilishni o'rganadi.

Boshlang'ich sinflarda yozishda tezlikka emas, balki sifatga e'tibor qaratiladi. O'quvchilar har bir harfni chiroyli, aniq va tartibli yozishga odatlanishi kerak. Tez yozish ko'nikmasi esa keying bosqichlarda tabiiy ravishda shakllanadi.

## **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarini chiroyli yozuvga o'rgatish ta'lim jarayonining muhim va ajralmas qismidir. To'g'ri o'tirish, yozuv qurollarini to'g'ri tutish va bo'g'inlab yozish kabi ko'nikmalar o'quvchining nafaqat husnixatini, balki umumiy o'qish va yozish malakasini ham rivojlantiradi. Bu jarayon o'quvchidan sabr, diqqat va muntazam mashq qilishni talab etadi.

Shuningdek, to'g'ri o'tirish orqali o'quvchining sog'lom rivojlanishi ta'minlanadi, bo'g'inlab yozish esa so'zlarni ongli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Natijada o'quvchi yozuv jarayonida xatolarni kamaytiradi, fikrini aniq va tushunarli ifodalashga o'rganadi.

Chiroyli yozuvni shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. U o'quvchilarga to'g'ri yo'l-yo'riq ko'rsatib, ularni rag'batlantirib borishi zarur. Shu bilan birga, ota-onalarning ham uy sharoitida bolaga e'tibor qaratishi bu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi. Umuman olganda, chiroyli yozuvni o'rgatish faqat yozuvni chiroyli qilish emas, balki o'quvchida tartib-intizom, estetik did, mustaqil ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu sababli bu jarayonga tizimli, sabrli va mas'uliyat bilan yondashish har bir pedagogning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.



## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

**Qosimova K., Matchonov S.** va boshq. ONA TILI o'qitish metodikasi. – T.: "Noshir", 2009.-352b.

**G'ulomova X., Yo'ldosheva SH.** va boshq. Husnixat va uni o'qitish metodikasi. – T.: TDPU, 2010. – 120 b

**G'ulomov M.** CHiroyli yozuv malakalarini shakllantirish. -T.: " O'qituvchi" , 1992- 95 b.